

SULAYMON YUDAKOV IJODIDA SIMFONIK MUSIQANING AHAMIYATI

Urinova Sabina Shuxrat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Musiqqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi
+998 99 331 33 35

Sayfidinova Husnora To‘lqin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Musiqqa ta’limi” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek simfonik musiqasida janrlar sohasidagi izlanishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekiston kompozitori Sulaymon Yudakov ijodida simfonik musiqaning tutgan o‘rni va ahamiyati borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: simfoniya, syuita, ta’lim, ijod, opera, ohang, kuy, janr, uslub, skripka, fantaziya, poema, kvartet.

XX asrda simfonik musiqa janrida samarali ijod qilgan O‘zbekiston kompozitorlari qatorida Sulaymon Yudakov ijodi alohida ahamiyatga ega. Kompozitor turli janrlarda asarlar yaratish bilan birga, birinchi o‘zbek komik operasi muallifi hamdir (“Maysaraning ishi”.1958). Yudakov asarlari o‘zining yorqinligi, ijodiy fikrning originalligi bilan ajralib turadi. O‘z faoliyati davomida kompozitor, milliy ohanglar zaminida betakror asarlar yaratishga erishgan. Milliy ohanglar asosida bayon etgan kompozitor an’analar bilan chegaralanib qolmay, ularni zamonaviy musiqiy uslublar va janrlarida talqin etganligini e’tirof qilish mumkin.

Shu bilan birga, kompozitor musiqasi o‘zida boshqa Sharq mamlakatlari musiqa madaniyati an’analarini namoyon qilib (...“Skripka, violonchel va fortepiano uchun fantaziya” da tojik, kvartet uchun 3- syuitada uyg‘ur, “Poema- rapsodiya” da eron musiqasi ohanglaridan foydalangan ³¹), bu orqali Yudakov asarlari nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa davlatlarda ham keng omma e’tiboriga tushdi.

Yudakov yaratgan ilk asarlari qatorida romanslar muhim o‘rin egallaydi. A.S.Pushkin she’riga yozilgan “Kuylama sohibjamol” romansida valsli ritmdan foydalanishi keyinchalik muallifning vokal janrdagi ko‘plab asarlarida keng qo‘llanilgan. Kompozitor shuningdek, o‘z ijodiy izlanishlarida simfonik musiqa janrlariga ham murojaat qiladi. Simfonik musiqa Yudakov ijodida tobora muhim o‘rin egallab, yetakchi bosqichga

³¹ В.Плунгян. Заметки о стиле Юдакова // Проблемы теоретического музыкознания в Узбекистане. Ташкент., 1976. 163- бет.

ko'tarila boshlaydi. Uning ilk simfonik asari - "Tantanali uvertyura" (1949), asarning obrazli dunyosi kompozitor uchun an'anaviy bo'lgan marsh va raqsona ohanglar asosiga qurilgan.

Yudakov o'z asarlari mavzusida folklor namunalariga murojaat etar ekan, ulardagi yorqin emosional xarakterga va o'ziga xos ritmik tuzilishlarga alohida e'tibor qaratadi. Musiqiy g'oyalarni aks ettirishda musiqiy shakl, faktura, garmoniya, lad, metro – ritm va boshqa musiqiy ifoda vositalarini qo'llashda kompozitora xos ijodiy uslub, kompozitorning musiqiy tili yuzaga kelgan. Shuningdek, ritmning dinamik va dramaturgik jihatlaridan muhim omil sifatida keng foydalangan. Yudakov simfonik musiqiy ijodida xalq ladlaridan keng foydalangan. O'zbek milliy musiqasi namunalari, ya'ni mumtoz musiqa va xalq qo'shiqlari misollaridan iqtibos sifatida foydalanib, yirik musiqiy janrlarda asarlar yozish an'ansi o'zbek kompozitorlik maktabi poydevori qurilishida ishtirok etgan ilk kompozitorlar ijodiga xosdir. Bunga misol qilib, M.Ashrafiy operalarida "Shashmaqom" dan olingan qo'shiqlarning iqtibos etilishini keltirish mumkin.

Sulaymon Yudakov ham o'z o'rnida ushbu avlodga tegishli asosiy kompozitorlik xususiyati – milliy ruhdagi kuy yarata olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Uning ijodida iqtibos deyarli o'rin olmagan. Eng yorqin sahna asari "Maysaraning ishi" da yangragan kuy va qo'shiqlar keyinchalik xalq ommasiga shu qadar singib ketganki, hatto salbiy obrazlarga berilgan xarakteristika xalq orasida ommalashib ketgan.

Asosiy urg'u tonika organ punktiga tayanishga berilgan.) tinglovchi xotirasida muhrlanib qolishning asosiy mezonidan biri kuy – ritmik tuzilmalarining, motivlarning takroriyligi ham muhim o'rin egallaydi. Yana asosiy mezonlardan biri ladning tayanchiga muntazam qaytib kelish ham ushbu vazifaga (xotirada qolishga) xizmat qiladi. Kompozitor nafaqat simfonik asarlarida, balki boshqa janrda yaratilgan ijod namunalarida ham xalq ladlariga murojaat etgan. Eoliy –doriy, eoliy – frigiya, miksolidiy – ioniy va boshqa xalq ladi o'zaro aloqadorlikda o'zgaruvchan holda kelishini kuzatishimiz mumkin. Garmonik til xususida to'xtaladigan bo'lsak, organ punktlari, kvarta- kvinta munosabatidagi akkordlarini ko'proq qo'llaydi. "...kompozitor dutor sadosini beruvchi parallel kvarta, kvintalardan tuzilgan majmualar ovoz yo'naltirilishini ishlatadi"³².

Yudakovning simfonik ijodi ko'plab asarlarni o'z ichiga olmagan, asosan uvertyura (2ta), simfonik poema (3ta), birgina syuita ("Furqat" kinofilmiga syuita), "Xorazm bayramona yurishi" simfonik pyesadan tashkil topgan. Ushbu kichik hajmdagi simfonik asarlar kompozitorning o'z ijodiga o'ta sinchkovlik bilan yondoshganligining dalilidir.

³² В.Плунгян. "Сулейман Юдаков". Ташкент-1979., 106-бет.

Ushbu simfonik asarlarning aksariyati ma'lum bayram sanalariga bag'ishlangan bo'lib, o'sha zamonga xos badiiy – estetik, ijtimoiy – siyosiy talablar darajasida yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov I.A. "Musika lug'ati". G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.
2. Gafurbekov T. Ijodning oltin qirras. S.Yudakov // "O'zbekiston san'ati", 1986.
3. Jabborov A. "O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari". T., 2004.
4. Karomatov F. Birinchi o'zbek operasi // "O'zbekiston madaniyati", 1959.
5. Mansurov A. Konsert dlya violoncheli s orkestrom S.Djalila // "Voprosy muzyki i estetiki", T., 1980.
6. Oyxo'jayeva X. "O'zbek musiqa tarixi" Ma'ruzalar matni.Toshkent., 2008.
7. Plungyan V. Fusunkor kuylar ijodchisi // "Sharq yulduzi", 1969, №4.
8. O'zbek muzikasi tarixi. T., 1981.